

## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING YO'NALISHLARI

**Raupova Parvina**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari to'grisida bir qancha fikr mulohazalar yuritilgan bo'lib, hozirgi kundagi dolzarbligi haqida fikr yuritilgan. Ularning har bir yo'nalishi haqida malumotlar.

**Kalit sôzlar:** Tilshunoslik, lingvistika, termin, sotsiolingvistika, statik lingvistika, kompyuter lingvistikasi, sinxon va diaxon lingvistika, dinamik lingvistika.

### KIRISH

Lingvistika termini qator Yevropa mamlakatlari tillarida faol qo'llanilib, til haqidagi fanni anglatadi. Ushbu so'zning o'zagi lingua bo'lib, til degan manoni bildirdi. Uning O'zbek tilidagi muqobili, ma'nodoshi tilshunoslik bo'lun, ular o'zaro sinonimlik munosabatga kirishadi.

Lingvistika yoki tilshunoslik fani o'ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan aloqa qurolini- tilni sistema sifatida - bir butun obyekt sifatida tadqiq va tahlil qiladi. Ayni jarayonda u turli ko'rinishlarda kuzatiladi. Bu ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan tilning mohiyatidan, uni turli tomondan o'rganish, tekshirish lozimligidan va bu ilmiylik nuqtai nazaridan mutlaqo to'g'ri ekanligidan kelib chiqadi. Lingvistika nihoyatda qudratli ma'naviyat belgisi, millat boyligi bo'lgan tilni o'rganish jarayonida quyudagi kôrinishlarda namoyon bo'ladi.

1. Dinamik lingvistika
2. sinxron lingvistika
3. diaxon lingvistika
4. statik lingvistika
5. matematik lingvistika
6. paralingvistika
7. intralingvistika
8. sotsiolingvistika
9. psixolingvistika
10. kompyuter lingvistika

1. Dinamik lingvistika- asosan tilni real mavjudligiga, Kommunikativ jarayonda turlicha vazifalarni faol bajarishda taraqqiyotga o'zgarushga tadqiq qiladi.

2. Sinxron lingvistika- bu turdagi lingvistika tilning malum Bir davrdagi qotgan turg'un holatini tasvirlashga xizmat qiladi.

3. Diaxron lingvistika- tilning taraqqiyoti, til birliklarining ESA rivojlanish qonuniyatlari hamda natijalarini o'rganadi.
4. Statik lingvistika- til faoliyatidagi to'liq sinxronlashgan muayyan Bir davrni ajratadi va Uni tasvirlaydi. tilshunoslikning ushbu sohasi dinamik lingvistikadan farqli tildagi rivojlanish va o'zgarish jarayonidan mutlaqo chetlashgan, unga yaqinlashmagan holda tilning hozirgi zamonaviy davrni Bilan bogliq malum Bir qotgan qismini tekshiradi.
5. MATEMATIK LINGVISTIKA- tilni o'rganish va tasvirlash jarayonida Matematik usullarning qo'llash imkoniyatlarini tekshiradi.
6. PARALINGVISTIKA- bevosita nutq faoliyati Bilan bogliq bo'lib nutq jarayonida fikr ifodalash Bilan Bir vaqtda yuzaga keluvchi so'zlashuv nutqining doimiy hamrohi bo'lgan qo'l. va yuz harakatlarini nutqning balandligi, ekspressiv - emotsional boyoq kabi qator jihatlarni o'rganuvchi sohadir.
7. INTRALINGVISTIKA- ichki lingvistika til birliklarining sistem aloqasini, munosabatini ekstralingvistik, faktorlarga bog'liq bo'lmagan holda o'rganadi. Ichki lingvistikaning tadqiqot manbai bo'lib fonologiya, leksiologiya va grammatika hisoblanadi.
8. SOTSIOLINGVISTIKA- sotsiologiya va lingvistika fanlarining zaruriy va mantiqiy bog'liqligidan hosil bo'lib jamiyat va til munosabati masalasi Bilan shug'ullanadi. U tilni ijtimoiy soha sifatida talqin qiladi. shuning uchun sotsiolingvistikaning eng muhim asosiy muammosi tilni -til tabiatini ijtimoiy hodisa sifatida tekshirish uning jamiyatdagi, tilshunoslik fanidagi o'rni va ahamiyatini belgilashdir. u Statistik malumotlar, aholi ro'yxati va anketa ma'lumotlari metodikasi Bilan o'z faoliyatini kengaytirib boradi.
9. PSIXOLINGVISTIKA- psixologiya va lingvistika fanlarining umumlashmasi sifatida nutq jarayonini mazmun nuqtai nazaridan, Kommunikativ ahamiyati nutq aktining muayyan ijtimoiy-amaliy maqsadga yo'naltirilganligi jihatidan o'rganadi. U nutqdagi fikr ifodalashdagi shakl va mazmun birligiga alohida e'tibor beradi.
10. KOMPYUTERLINGVISTIKA- amaliy tilshunoslikning Bir bo'limi bo'lib uning asosiy maqsadi tilshunoslikga oid muammolarni kompyuter vositasida hal qilishdir. Aniqrogi kompyuter lingvistikasi tillarni o'qitish, muayyan fanlarga oid bilimlarni baholash, matnlarni tahrirlash, Bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish, Statistik tadqiqotlar olib birish kabi qator jarayonlarda faol xizmat qilmoqda.

### **XULOSA**

Lingvistika fani jamiyat taraqqiyotining, gullab yashnashining eng muhim eng asosiy tengi yoq mezonlaridan biri til -aloqa quroli ekanligini tasdiqlash va isbotlash uchun xizmat qiladi. shuningdek u talim oluvchilarga ona tili imkoniyatlarini ayni bir fikrni, narsa hodisani yuzlab usullar bilan ifodalash yo'llarini yetkazish bilan unda ijobiy

tafakkurni rivojlantirishga ona tilida fikrlash va ona tili qurulishining o'ziga xosligi boshqa tillardan farq qilishi.

**REFERENS:**

- 1.R. Rasulov Umumiy tilshunoslik . Toshkent 2022
- 2.Shayxislamov N . Z.(2022) academic litseylarning mutaxassislik yo'nalishlarida ona tili darslarini o'qitishda zamonaviy pedagogic texnologiyalardan foydalanishning samarasi.
- 3.Shayxulislomov (2021) Jahon lingvistic ekspertologiyasida tarkibiy qismlar masalasining o'rganilishi.